

HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHDA IJTIMOY PROFILAKTIKANING AHAMIYATI HAMDA UNING HUQUQIY ASOSLARI

Abdurashidov Muhammadjon To'liqinjon o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 2-bosqich kursanti

Annatsiya: *Ushbu maqola orqali siz, Ichki ishlar organlari Huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektorining xizmat faoliyatidagi ijtimoiy profilaktikaning o'rnini, uni amalga oshiruvchi chora tadbirlar hamda uning huquqiy asoslari, ijtimoiy profilaktikani amalga oshirishda ishtirok etuvchi subektlar faoliyatini tashkil qilinishini ilmiy jihatdan asoslanganligini ko'rishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Ichki ishlar organi xodimi, profilaktika, ijtimoiy profilaktika, kuchli beshlik, huquqbuzarlik, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxs, huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori shaxs, qo'shma qaror.*

IMPORTANCE IN CRIME PREVENTION AND LEGAL BASIS OF IMPLEMENTING SOCIAL PREVENTION

Annotation: *Through this article, you can get acquainted with the role of social prevention in the work of the crime prevention inspector of the internal affairs bodies, the measures that implement it and its legal basis, as well as the issues of organizing the activities of subjects participating in crime prevention.*

Key words: *internal affairs bodies, prevention, social prevention, strong five, offense, persons prone to commit offense, persons who are likely to be victims of offense, joint decision.*

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПРОФИЛАКТИКИ В ПРЕДУПРЕЖДЕНИИ ПРЕДСУПНОСТИ И ПРАВОВАЯ ОСНОВА ОСУЩЕСТВИ

Аннотация: *Благодаря данной статье можно увидеть роль социальной профилактики в работе инспектора внутренних дел по вопросам профилактики правонарушений, меры ее реализации и ее правовую основу, а также организацию деятельности субъектов, участвующих в реализации.*

Ключевые слова: *сотрудник органа внутренних дел, профилактика, социальная профилактика, пятерка, преступление, лицо, склонное к совершению преступления, лицо с высокой вероятностью подвергнуться воздействию преступления, совместное решение.*

Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash -huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligining asosiy omilidir.

Sh.Mirziyoyev

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizning turli sohalarida islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ularda biri mahalla kesimida hisoblanadi. Chunki ushbu tuzilma davlat boshqaruvining eng quyi tizimidir. Aynan eng quyi tizimlarni isloh qilish islohotlarimizning fundamenti bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan **"Taraqqiyot strategiyasi"** ham o'zida **100 ta** maqsadni jamlagan hisoblanadi. Ushbu maqsadlarning birinchisi aynan **Mahalla instituti faoliyatining samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirish bo'lgan quyidagi asosiy yo'nalishlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:**

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, ularning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish;

Fuqarolarning o'z mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani ta'minlash, mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish;

Mahalladan turib barcha davlat idoralariga murojaat qilish tizimini yaratish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada ko'rsatish;

Mahallalarning "o'sish nuqtalari" va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish;

Mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash, barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni ta'minlash, bank-moliya, tomorqa, er, chorvachilik va parrandachilik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantirish;

Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi institutining samarali faoliyatini yo'lga qo'yishdan iborat³⁰.

Mahalla institutini bugungi kunda jamiyat hayotida tutgan o'rnini inobatga olib, shuningdek hududlarda mavjud bo'lgan aholi muammolar ushbu quyi tizimning o'zida hal etish orqali esa, xalqning roziliga erishish davlatimizning ustuvor maqsadlaridan biri.

Bizlarga yaxshi ayonki, jinoyatchilikka qarshi kurashishning eng samarali usuli – profilaktika, ya'ni qonunbuzarliklarni oldini olishdan iborat hisoblanadi. Bugungi kunda davlatimiz bu kabi masalalarni ahamiyati va zarurligini inobatga olib, samarali islohotlarni va ushbu sohaga oid innavatsion raqamli texnologiyalarni keng ko'lamda tatbiq etib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021-yil 26-mart kuni **"Jamoat xavsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi PF-6196 son farmoni imzolandi. Ushbu farmon asosida ichki ishlar organlarining tayanch punktlari negizida "Mahalla huquq-tartibot maskan"lari bosqichma-bosqich tashkil etilishi belgilandi. Farmonga ko'ra mahalla huquq-tartibot maskani hududdagi jamoat

³⁰O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son farmon. Kirish yo'li: <https://lex.uz/docs/-5841063>

xavsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarni oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashishning asosiy quyi bo'g'ini hisoblanadi³¹.

Shu bilan bir qatorda 2023 o'tgan 6 oyda mahallalarda barvaqt oldini olish mumkin bo'lgan **12 mingga** yaqin jinoyat sodir etilgan. **9 ming 500**ga yaqin mahallaning **1 ming 500 tasida** kriminogen vaziyat borligi aniqlangan. Aynan mahalla hududida sodir etilishi mumkin bo'lgan va jamiyat hayoti uchun katta tahdid bo'lgan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, ekstrimizm, korrupsiya, odam savdosi va narkotrafikka qarshi kurashish va ushbu jinoyatlarni shuningdek boshqa turdagi sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar va ularning salbiy oqibatlarini oldini olish maqsadida mamlakatimizda har bir mahallaga **bir nafardan profilaktika inspektori** biriktirildi. Ularga mahalla raisining o'rinbosari maqomi berildi. Davlatimiz profilaktika inspektori tekshiruvchi yoki nazoratchi emas, balki barcha hayotiy masalalarda mahalla ahliga ko'mak beradigan, chinakam yelkadosh, yonmayon turadigan kuch bo'lishini vazifa qilib qo'ydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizdagi qonunga itoatkorlik va jamoat xavsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan jamoat xavsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni **“Xalq manfaatlariga xizmat qilish”** tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizmlari va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek har bir mahalla hududida istiqomat qiluvchi aholiga ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, psixologik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun hamda mahallalarda profilaktikani amalga oshirish, jamoat xavsizligini ta'minlash maqsadida ichki ishlar organi tayanch punkti (huquq-tartibot maskani) profilaktika (katta) inspektori, **mahalla raisi, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi, mahalladagi xotin-qizlar faoli va mahalladagi yoshlar yetakchisi lavozimlari** tashkil etildi. Huquqbuzarlik sodir etishini oldini olish va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga ijtimoiy profilaktika choralari qo'llash bo'yicha yakka tartibda manzilli ishlash, shu bilan birga huquqbuzarlik sodir etish va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarning toifalari belgilanib, ular bilan ishlashda mahalla miqyosida profilaktika inspektori tomonidan mahalla raisining umumiy boshqaruvi ostida amalga oshiriladigan hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisining faoliyatini tashkil etish tartibini amaliyotga tatbiq etib kelinmoqda.

ASOSIY YO'NALISHLAR

Bugungi kunda mamlakatimizda shaxs uning huquq, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ishonchli himoya qilish **“Barcha sa'y-xarakatlar inson qadri uchun”** degan ustuvor go'ya asosida amalga oshirib kelinmoqda.

O'tgan qisqa davr mobaynida aholi muammolarini aniqlash va hal etish bo'yicha samarali hamkorlik tizimini joriy etish, mahallani xalq bilan davlat o'rtasida ishonchli **“ko'prik”** bo'lishini amalda ta'minlash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

³¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2021-yil 26-mart kuni “Jamoat xavsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6196 son farmoni.

Shu bilan birgalikda, ichki ishlar organilarni jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini, shaxs jamiyat davlat manfaatlarini ishonchli himoya qilish borasidagi faoliyatni takomillashtirish, sohaga doir amaldagi qonunlarning ijrosini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni jalb etish, jinoyatlarning omillarini ilmiy diagnoz asosida aniqlash metodikasini amaliyotga tatbiq etish orqali bevosita profilaktika inspektorlarning mahalla hududidagi faoliyatini yanada takomillashtirish.

O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27 son farmoni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasida belgilangan quyidagi vazifalarni ijrosini ta'minlash:

Jamoat xavfsizligini ta'minlash faoliyati asosiy tamoyillar yaratish;

Jamoat xavfsizligini ta'minlovchi subyektlar doirasini belgilash;

Jamoat xavfsizligini ta'minlash davlat idoralari va tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolar hamda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jamoat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli idoraviy dasturlarni ishlab chiqish, tasdiqlashi va amalga oshirish faoliyati;

Jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka, qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish, huquqbuzarliklarni sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash;

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938 son farmoni bilan joriy etilgan. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratishni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risida qo'shma qarori imzolandi. Ushbu qo'shma qaror asosida mahalla hududi xavfsiz muhitni ta'minlash, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan kunlik yakka tartibda ishlash bo'yicha manzilli chora-tadbirlar belgilandi.

Qo'shma qarordagi vazifalarni bajarishda Ichki ishlar vazirligi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatildi:

1. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yuzasidan chora tadbirlarni amalga oshirish tartibini yagona monitorinhni olib borish va hisobotlarini umumlashtirish;

2. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish tartibi bo'yicha o'quv-seminarlarini tashkil etish;

3. "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish tartibi bo'yicha faoliyat yil yakuniga qadar tizimli monitoring qilinib, mazkur sohasidagi ishlarni innavatsion texnologiyalarni tatbiq etgan holda raqamlashtirish orqali samaradorligini oshirish choralarni ko'rish belgilandi.

Qo'shma qaror asosida huquqbuzarliklarga qarshi kurashishda ijtimoiy profilaktikadan foydalanish amaliyotini joriy etish belgilandi. Ushbu faoliyatni ahamiyatini o'rganishdan oldin ularning mazmun-mohiyatini anglash zarur sanaladi. Dastavval huquqbuzarlik va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxs so'ziga to'xtalib o'tsak O'zbekiston Respublikasi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasida quyidagicha ta'rif berilgan:

Huquqbuzarlik — sodir etilganligi uchun ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan aybli g'ayri huquqiy qilmish (harakat yoki harakatsizlik) hisoblanadi.³²

Huquqbuzarlikdan jabrlanuvchi ehtimoli yuqori bo'lgan shaxs — jismoniy, ma'naviy yoki mulkiy zarar yetkazilish ehtimoli yuqori bolgan shaxs. Ushbu toifa shaxslarga quyidagi shaxslarni kiritish mumkin:

1. Yo'lg'iz yashovchi ayollar va qariyalar;
2. Qonuniy nikohsiz yashovchi shaxslar;
3. Sudxorlik bilan shug'ullanuvchi shaxslar;
4. G'ayriijtimoiy xulq-atvorli xotin-qizlar.

Ijtimoiy profilaktikaga esa turli yuridik adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan. Xususan Rossiya yuridik adabiyotlarida ijtimoiy profilaktikaga sodir etilishi mumkin bo'lgan ijtimoiy, psixologik, pedagogik, huquqiy va boshqa muammolariga barham berish maqsadida hamda kerakli natijaga erishish uchun ongli tashkil etilgan faoliyat.³³

Ingliz adabiyotlarida ijtimoiy profilaktika amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokini tashkil etish va amalga oshirishga doir ishlar ochib berilgan hisoblanadi³⁴. Qo'shma qarorda ijtimoiy profilaktika tushunchasiga to'xtalib o'tilgan bo'lib, unga ko'ra **ijtimoiy profilaktika** deganda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan yoxud huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslarga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatishga, shuningdek ularga jamiyatda qabul qilingan xulq – atvor normalari va qoidalarini sindirishga qaratilgan chora – tadbirlar majmui tushuniladi.

Yuridik adabiyotlarda ijtimoiy profilaktika huquqbuzarliklar profilaktikasidagi umumiy maxsus yakka viktiminalogik turlarining beshinchi turi sifatida etirof etib kelinmoqda. Lekin ijtimoiy profilaktika quyidagi xususiyatlariga ko'ra ushbu turlardan farq qiladi.

1. Ijtimoiy profilaktikani amalga oshiruvchi subektlariga ko'ra ya'ni huquqbuzarliklar profilaktikasidagi umumiy, maxsus, yakka va viktimalogik turlari profilaktika inspektorlari tomonidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy profilaktikani amalga oshiruvchi subektlar sifatida mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin qizlar faoli hamda yoshlar yetakchi profilaktika inspektorlari tomonidan bajarilishiga ko'ra.

2. Ijtimoiy profilaktika obektlariga ko'ra ya'ni bunda huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bolgan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar toifasiga ko'ra.

³² "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni 2014 yil 14 may

³³ Керимов,Д, Бабаев,М, Жалениский,А, и др. Социальная профилактика правонарушений: советы рекомендации. Практическое пособие.

³⁴ Social crime prevention in the developing world exploring the role of police in crime prevention

3. Ijtimoiy profilaktikani amalga oshirishda subektlarining alohida funksional majburiyatlari belgilandi. Ular ishlashi lozim bo'lgan obektlar toifasi va amalga oshiradigan ishlar aniq belgilanishiga ko'ra.

4. Ijtimoiy profilaktika obekti bo'lgan shaxslar toifasini aniqlashda profilaktika inspektori tomonidan amal qilishi lozim bo'lgan tartibiga ko'ra.

Ijtimoiy profilaktika quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Mahalla hududidagi profilaktika inspektori tomonidan aholini "Xonadonbay" va "Fuqarobay" o'rganish orqali, jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlari va ma'lumotlari asosida, xizmatga oid ma'lumotlar asosida, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi tomonidan taqdim etilgan ma'lumot asosida ijtimoiy profilaktika obekti aniqlanadi. Ular bilan manzilli ishlashni tashkil etish maqsadida har bir shaxs bo'yicha mazkur qo'shma qarorda nazarda tutilgan asoslantirilgan xulosani ikki nusxada tuzadi. Profilaktika inspektori ro'yxatga olingan xulosaning nusxasini uch kun muddat ichida tegishligi bo'yicha yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni manzilli amalga oshirish uchun taqdim etadi. Taqdim etilgan xulosaga muvofiq esa mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi o'zlariga birlashtirilgan obektlar bilan profilaktik chora-tadbirlarni manzilli amalga oshiradi.

Qo'shma qaror asosida mahalla hududidagi profilaktika inspektori, mahalla raisi, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi, mahalladagi xotin-qizlar faoli hamda mahalladagi yoshlar yetakchisiga yangi funksional vazifa yuklatildi. Ular tomonidan mahalla hududida huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan ijtimoiy profilaktika ishlarini amalga oshirish belgilandi.

Mahalla hududida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarliklar va ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar va huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar bilan profilaktika ishlarni amalga oshirish. Ularni ijtimoiy hayotga moslashishlari uchun zarur ijtimoiy yordam chora-tadbirlarni va profilaktik ishlarni muntazam ravishda bajarish. Bu orqali esa mahalla hududida jamoat tartibini saqlash, kriminogen vaziyatni kamaytirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va fuqarolarni qonunga ro'ya etish ruhida tarbiyalashga erishish mumkin. O'tgan davr mobaynida mahalla hududidagi ijtimoiy pprofilaktika obekti hisoblangan **441008** shaxs aniqlanib, ular bilan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida. Mahalla raisiga **134318** nafar, hokim yordamchisiga **104008** nafar, xotin-qizlar faoliga **115925** nafar, yoshlar yetakchisiga **86757** nafar shaxslarning kelgusida sodir etilishi mumkin bo'lgan salbiy holatlarni oldini olish maqsadida shaxs bilan yakka tartibda ishlash yuzasidan xulosalar profilaktika inspektorlari tomonidan taqdim etildi. Ushbu raqamlar ayni paytda ijtimoiy profilaktikani huquqbuzarliklarni oldini olishdagi ahamiyatini va uning amaliyotdagi samaradorligini ko'rsatib bermoqda.

XULOSA

Dunyo kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Ushbu jarayonda har bir mamlakat o'zining fuqarolarini huquqlari, erkinliklari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ishonchli himoya qilishi. Buning natijasida xalqning davlat tomonidan amalga oshirib turilgan islohotlariga ishonch ruhini shakllantirish va qo'llab-quvvatlashishga erishish islohotlarni amalga oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasini yanada rivojlantirish maqsadida qator yangi qonunchilik loyihalari tayyorlanib kelinmoqda. Ichki ishlar vazirligi tomonidan "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun va "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunlarni birlashtirgan loyiha varianti **"Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi"**³⁵ga elektron saytiga muhokama uchun kiritildi. Loyihada asosiy tushunchalar kengaytirildi, xususan quyidagi tushunchalar qo'shildi: Ijtimoiy profilaktika, oila-turmush munosabatlari doirasidagi huquqbuzarlik, huquqbuzarlik sabablari, huquqbuzarlik sodir etishga imkon bergan shart-sharoitlar, ijtimoiy vaziyati og'ir bo'lgan shaxs kabilar kiritildi.

Davlat rahbarimiz tomonidan mahalla hududida istiqomat qiluvchi aholi muammolarini shu yerning o'zida xalq etish, ishlarini tashkil etish maqsadida mahalla hududida xizmat ko'rsatuvchi kuchli beshlikni faoliyatini kuchli yettilikka aylantirish taklifi berildi. Mahalla aholisiga xizmat ko'rsatish uchun ijtimoiy ishchi va soliq masalalari bo'yicha vakil lavozimlarini joriy etish vazifasi belgilandi. Aynan yuqoridagi vazifalarni inobatga olib, Ichki ishlar vaziri tomonidan mahallada qonun buzilishlarining oldini olish, og'ir ahvolga tushgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashda **"Mahalla yettiligi"** tomonidan jinoyatchilikning ijtimoiy profilaktikasiga qaratilgan faoliyatini yo'lga qo'yish ishlari tashkil etib kelinmoqda. Bu kabi islohotlarimizning barchasi xalqning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan hisoblanadi. **Xalq davlat organlari manfaatlariga emas, davlat organlari xalqimizga xizmat qiladigan vaqt keldi.**

Jinoyatchilik va huquqbuzarlikni barvaqt aniqlash va unga qarshi kurashishda uning tub ildizini va asosiy sabablarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham biz ko'rilayotgan ishlarda ana shu jihatlarga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Huquqbuzarlik hech qachon o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Kimnidir e'tiborsizligi, befarqligi ham bunga sabab bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirda qabul qilingan konstitutsiyasi.
2. Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonun 2014 yil 14 may.
3. Huquqbuzarliklar profilaktikasi darsligi Toshkent 2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son farmon. Kirish yo'li: <https://lex.uz/docs/-5841063>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi PF-27 son farmoni bilan tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasi jamoat xavsizligi konsepsiyasida
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938 son farmoni bilan joriy etilgan "Obod va xavsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavsiz muhitni yaratishni
7. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi hamda Yoshlar siyosati va sport vazirligining "Obod va xavsiz mahalla" tamoyili asosida respublika mahallalarida xavsiz muhitni yaratish mexanizmlarini belgilash to'g'risida qoshma qarori
8. Norma.uz https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari/ikkita_qonun_bittaga_birlashtirildi.

³⁵Norma.uz https://www.norma.uz/oz/nhh_loyihalari/ikkita_qonun_bittaga_birlashtirildi